ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

KOSTYUM KOMPOZITSIYASIDA KIYIMLARNI TARKIBIY OBRAZLI IFODALANISHINI TAHLILI

Mirboboyeva G, Mirzayeva I
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Maqolada loyihalanayotgan modellarda shakl va shakl hosil qilish jarayonlarini ko‘rinishi, inson v tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, yechimni obrazliligi, kompozisiyani yaratishda chiziqlarni joylashishi haqida loyihalovchi rassomning badiiy fikrlari atroflicha ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kostyum, poyabzal, forma, tabiat, simmetriya, funksiya, rang, chiziq, ornament, peyzaj, plastika, qiyalik darajasi, proza, proporsiya, kompozisiya kategoriyalari.

Аннотация: В статье тщательно рассмотрено, вид операции форма и создания форма модели, соответствие между человеком и природой, образность решенные, художественный мысли художника при создание композиция о размещение линии

Ключевые слова. Костюм, обувь, форма, природа, симметрия, функция, пейзаж, линия, цвет, орнамент,пластика,проза,пропорция,категория композиции.

Annotatsion: The article said that it is about the general appearance of process figure and making figure in the projected model, depending of people and nature and about the opinion of designer artist in settling down of line.

Key words: suit, shoes, uniform, nature, symmetry, function, cooler, line, ornament, degrees of descent, prose, plastic, proportion, category of composition.

Kiyim-kechak, poyabzal va bir butun kostyum barchasi o‘zida birlashtirib badiiy buyumga aylanadi, qachonki yaratuvchi u yoki bu obrazli nozik didli, shoirona fikrlasa, ular ta’sirchan bo‘ladi. Kostyumlarda, boshqa barcha ijod mahsulidan arxitektonik o‘rinni egallaydi.

Shakl va shakl hosil qilish jarayonlarining o‘zi bu yerga toza ko‘rinishida, tasviriy qo‘llanmasi ko‘rinishni beradi. Lekin shuni aytib o‘tish joizki, arxitektonik san’atda ixtirochilik mahsulida tasviriylikka yondashishi tasviriy logikani to‘liq, arxitektonik logikasiga to‘liq bo‘ysungan sharoitdagina sodir bo‘ladi.



1-rasm Kostyumda murakkab shakllar uyg‘unligi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Ayniqsa ushbu prinsipni ko‘rgazma sifatida namoyon etadi, ya’ni tasvirni so‘ngi shartliligini, stillangan va tizimlangan tasviriy ifodasi, bir-biriga bog‘liq elementlar predmetni erkin, tabiat qonuniga asoslanmagan holda, arnalintli simmetrik ritmda berilishidir. Bu shuni ko‘rsatadiki, bu holda biz tasviriy til bilan emas, aynan arxitektonik til bilan tanishamiz. Ommaviy chiziladigan buyumning tasviriy obrazi (jumladan kiyim-kechak, poyabzal) insonni buyum tizimi faoliyatida ko‘rsatgandagina hosil bo‘ladi.



2-rasm Kostyumda shakl elementlarini ifoda etishi.

Tashviqotchi musavvir rejisyor rolini ijro etib, obraz rivojlanishiga yo‘nalish beradi, qolganini esa ushbu kiyim-kechakni, poyabzalni kiyadigan insonni o‘ziga qoldiradi, u takomillashtirishga va chuqurlashtirishga haqli. Kiyim-kechak, poyabzal va boshqalar shaklini yaratish plastika tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Plastika, bu shakl harakatining uzluksizligi bo‘lib, bir elementni ikkinchisiga bir tekisda o‘tishi, shakl bir butunlik tasavvurini hosil qilishidir. Kiyim-kechak, poyabzal plastikasi haqida gap ketar ekan, bir vaqtda oyoq panjachisi, boldir, hamda inson butun tanasi plastikasi nazarda tutiladi.

Yechimni obrazligi - turli janrdagi sa’nat maxsulotlarining zaruriy sifatidir. Badiiy obrazning mohiyati, haqiqatni qayta yaratadigan san’at guruxiga mansub bo‘lib, olimlarning gapi bilan aytganda hayotni hayotiy o‘z shaklida ifoda etilishidir.

Inson ma’lum holati va hodisasiga asoslanmagan badiiy obraz tushunarsizdir. Ifoda etib bo‘lmaydigan narsani obrazligi bo‘lishi mumkinmi?

Turli hisssiyotli tuyg‘ular uyg‘otadigan geometrik shakllar:

A) geometrik shakllar.
B) chiziqli ko‘rinishi.
V) plastik chiziqlar.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12



3-rasm. Poyabzal plastikasining tasviri.

Inson to‘qnash keladigan tashqi olam predmetlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri insonni his qilish organlariga ta’sir etadi, avvalo ko‘rish hissiga. Ushbu tuyg‘uni qabul qilishni dastlabki soniyasi bo‘lib, tahlil qilinadi, tushunchada (ongda) qayta ishlanadi xamda tasavvur qilinadi. Inson tabiatni ko‘rishi, his etish va qabul qilish yo‘lida, tiriklikdan abstrakt fikrlashga o‘tishda hissiy reaksiyaga uchraydi. Shoirlar o‘z she’rida so‘liyotgan kuz pallasi, tabiatning alvon tilla rangga burkanganligi,bu ham ko‘zga quvonch berishi, lekin vidolashuv hissi uyg‘otishi haqida aytilgan. Bu so‘zlar bilan shoir kuz peyzajini subektiv ifoda etibgina qolmay, inson ko‘zi qanday hissiyotlarga berilishini ifoda etadi. Kuz tabiatni o‘lish (uyquga ketish) pallasi inson hissiyotiga baxorga nisbatan (tabiatning uyg‘onishiga) boshqacha ta’sir etadi. Bahorgi yoki kuzgi peyzajga qarar ekanmiz, ma’lum shakllar to‘planishini, ranglar nisbatini ko‘ramiz. Ular qaytalanish natijasida insonda turli kayfiyat uyg‘otadi, bunday uyg‘onish gullash hayot, so‘lish o‘lim hissini uyg‘otuvchi kayfiyat hosil bo‘ladi. Bunga bog‘liq xolda badiiy-obrazli ifoda hosil bo‘ladi, masalan, bahor rangi, kuz rangi “sovuq”, “issiq”, “yengil” va “og‘ir” ranglar va boshqalar. Ko‘p marotaba takrorlanishi natijasida insonda shartli refleks hosil qilinadi. Ular o‘z asosiy tasavvuri bilan insonda ma’lum hissiy obraz kayfiyat hosil qiladi. So‘zlar og‘ir, yengil, yumshoq, qattiq paxmoq va boshqalar faqat ko‘rib turgan fizik ahamiyatga ega bo‘libgina qolmay, obrazli ahamiyatga ham ega. Shuningdek, shakllarni fazoviy shaklar nisbatini his etish ma’lum xarakterga ega, ya’ni shaklni o‘zi va uning chiziqlaridir.

Bu holatlarda hosil bo‘lgan obrazlar, predmet shakli, uning rangi chiziqlari bilan bog‘liqlik tushuniladi, ya’ni fazoviy holatni xarakterlaydi. Har qanday san’at mahsuloti ishlab chiqishda,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

jumladan kostyum yaratishda musavvir-konstruktor turli chiziqlardan foydalanadi. Bu to‘g‘ri gorizontal,to‘g‘ri vertikal, qiya chiziqlar, siniq, aralash, parallel, kesib o‘tuvchi chiziqlar va boshqalarda ko‘rish mumkin.

Gorizontal chiziqlar buyum kengligi haqida ta’surot beradi, to‘lalik, sokinlik hissini uyg‘otadi. Masalan, poyabzalning uch qismi statiklikni takidlab, shaklni plastik rivojlanishini yakunlaydi. Vertikal chiziq balandlikni, mustahkamlikni, asoslilikni ko‘rsatadi. Bunday chiziqlar bo‘yni ko‘rsatib, unga oliy martabalik ko‘rinishni beradi. Egri chiziqlar poyabzalni asosiy konstruktivli-kompozisiyali chiziqlaridir. Aynan egri chiziqlar yordamida, masalan, ikki o‘lchamli homakidan inson oyog‘i uchun poyabzalning xajmiy shaklini yaratish mumkin. egri chiziqlar turlichadir. Poyabzalni loyixalashda siniq chiziqlar ma’lum detallarda ko‘p qo‘llaniladi, oldida, ulash joylarida va boshqalar joylarda ko‘rish mumkin. Aralash chiziqlar fasonli detal va shakl berishda, kiyim konstruksiyasini yaratishda ko‘p uchraydi. Ustiga qo‘yilgan chiziqlar xarakatni uyg‘unlashtiradi. Ular bir-biridan o‘tish chiziqlari bo‘lganligi sababli, gorizontal va vertikal chiziqlarning xossalariga ega bo‘ladi. Ular qiyalik darajasiga shaklni kattalashganday yoki kichiklashganday ko‘rsatadi. Ular asosan kiyim-kechak, poyabzal, sumkaning qirqma detallari, qisma taxlamalarida ko‘p uchraydi. Parallel va kesib o‘tuvchi chiziqlar asosan bezak beruvchi manzara chiziqlaridir. Barcha cheksiz, turli xil chiziqlar uchta turli emosiyali guruxiga kirishi mumkin: to‘g‘ri chiziqlar, egrilik radiusi doimiy bo‘lgan chiziqlar-parabola, giperbola, spirallardir. To‘g‘ri va doimiy egrilik radiusiga ega bo‘lgan chiziqlar sokinlik, muvozanatlilik xissini uyg‘otadi. O‘zgaruvchan egrilik radiusi chiziqlari esa o‘zgaruvchanlik, dinamiklik, tinchsizlanish va bezanganlik hissini uyg‘otadi. Bundan kelib chiqadiki ularni kundalik kiyiladigan poyabzal va kiyim-kechaklarda qo‘llanilishi chegaralangan. Insonni kundalik amaliy talabi tabiatga sovuqqon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shuningdek keng faoliyat ko‘rsatadigan bo‘lsa, ya’ni jamiyatda tutgan o‘rni yuqori bo‘lsa shunchalik uning xis etish tuyg‘ulari shunchali cheksiz yuqori bo‘ladi. Inson hissiyotining o‘zgarishi hayotni tarixiy sharoitini, jamoat mintalitetiga, mutaxasislilik faoliyatinig xarakteriga, tajribasi va madaniy darajasiga bog‘liq. Shunday qilib bir hil ranglarni turli xalq vakillarida mutlaqo turli hissiy ma’noga ega. Masalan, motam rangi bir xalqda qora, boshqasida oq va yana boshqasida moviydir. San’atning haqiqatga nisbatan estetik munosabatini juda oddiy yo‘l bilan ishonarli qilib, dehqonlarda, savdogarlarda va aristokratlarda nozik xilqat ayol timsolida ko‘rsatib beradi, ularni har birida mutloqo boshqa-boshqa shakllar, proporsiyalar va chiziqlar insonni xayratga soladi. Bundan kelib chiqadiki insonning turli ijtimoiy jamoada, atrof muxitga, tabiat olamiga bo‘lgan munosabatlari turlichadir. Insonda xissiy kayfiyat xar qanday predmet (buyum) tayyorlanish jarayonida shakllanadi va bunyod bo‘ladi. Masalan, kulol ko‘zaga shakl beradi. Tajribada tasdiqlanishicha pastki tomoni kengayib borayotgan va pastki tomoni torayib borayotgan idish turli hissiy taasurot qoldiradi, huddi turli ovozlar nisbati va oxanglari kabi. Ko‘za shaklidagi chiziqlarning turli qiyalikda bo‘lishi, idish og‘ziga o‘tishdagi shakli, turli figurada bo‘lishi va rangi, materiali ornamentlanishi, bularni barchasi insonda turli hissiy taasurot qoldiradi. Bunda faqatgina idish bunyodga kelib qolmay ma’lum ko‘rinishdagi qism, sanoat mo‘jizasi, ko‘zni quvontiradigan his-tuyg‘ularga ko‘tarinki ruh beradigan go‘zallik yaratiladi. Bunda shoirona, prozani maishiy sanoat obrazi yaratiladi. Ko‘zalarning uchta obrazi tasvir etilgan. Tasavvur qilamiz uchala ko‘za ham bir hil materialdan yasalgan, faqat shaklida farq qiladi. Bir xil materialdan yasalgan, bir xil vazifani bajaruvchi ko‘zani umumiy shaklida tana, bo‘yin, og‘zi va tutgichi proporsiyalarini o‘zgartirishi musavvir uchun asosiy vosita hisoblanadi bir xil konstuksiya asosida esa turli ko‘rinishni namoyon etadi. Bundan kelib chiqishiga qaraganda, turli ko‘tarinki ruh beradigan buyum olish uchun ushbu o‘zgarishlar kifoya bo‘lib, har bir holatda o‘z obrazini yaratadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Birinchi ko‘za og‘ir, stolga mustahkam turadigan, jiddiylik uyg‘otadigan, ikkinchisini o‘zgartirilgan bo‘yin qismi hisobiga proporsiyalarni uzayishi natijasida balandroq ko‘rinadi, uchunchi shaklni intilayotgan ko‘rinishi noziklik, noyoblik hissini uyg‘otadi. Shunday holat kostyumda va uning alohida elementlarida bo‘lishi mumkin.

Konstruktiv asosi, materiali va vazifasiga qarab turli detallarda, turli davlatlarda yaratilgan kostyum turli ma’no va ruhni, nazariy bilimlarni o‘z ichiga joylaydi.

Konstruksiya texnik va estetik tomondan mukammal bo‘lishi kerak. Ishni bajaruvchidan modelda foydalanilgan material xossalaridan maksimal foydalanish talab etiladi.

Model tashqi tahlili bilan chegaralanib qolmay, uning ichki konstruksiyasi va o‘sish tarixini hisobga olmay turib, mahsulot borligini chuqur anglab bo‘lmaydi.

Har bir mahsulot, buyum ommaning aniq ehtiyojlarini qondirish uchun bunyod qilinadi. Shu sababli funksional va ehtiyojda muhim o‘rin tutishiga amal qilinadi.

Ishdagi modelga ega bo‘la turib, uni tashqi ko‘rinishini, bo‘laklarini har tomonlama rasmga olish mumkin. Kompozisiyaning asosiy kategoriyalari bilan tanishgach, birinchi konkret loyihada shakllari oddiy va konstruksiyasi unga murakkab bo‘lmagan bo‘lishi kerak, xona reproduktori, stol lampasi yoki cho‘ntak fonari. Ushbu buyumlarda ichki konstruksiya va tashqi plastik yechimlar, mantaj va ishlash texnologiyasi orasida bog‘liq borligini o‘zimiz osongina anglashimiz mumkin.

Buyum haqida ma’lumot yig‘ayotganda ishlab turgan model o‘lchamlari, asosiy qismlarini o‘lchash, ularni joylashish tartibini rasmini chiqarish hamda o‘zaro bog‘liq sxemasi chizish, montaj qilish prinsipini tushunishga harakat qilish kerak. Buning uchun gabarit o‘lchamlar (uzunligi, balandligi, kengligi, chuqurligi) o‘lchab olinadi, uning asosida uchta proyeksiya gabaritli chizma chiziladi, oldidan, tepadan (plan) va yondan natural o‘lchamlar qo‘yiladi (haqiqiy kattalikda yoki masshtab bo‘yicha bo‘lishiga bog‘liq bo‘lmagan holda).

Shundan so‘ng, qaysi tartibda joylashgani va ishlashiga umumiy konstruksiyasida o‘zaro bog‘liqligiga qarab detallarga ajratiladi, o‘lchanadi va qalam bilan chizib olinadi. Buyumni umimiy ko‘rinishini rangli bajarish kerak. Shundan so‘ng qirqimli chizmasi tayyorlanadi. Uni sxematik ravishda chizib olish muhim. Bu bizga ichki va tashqi konstruksiya qanchalik bir-biriga bog‘liq ekanligini aniqlash, ko‘rish, u yerda tushunib bo‘lmaydigan bo‘shliq yo‘qligini aniqlash lozim, chunki uni hisobiga gabarit o‘lchamlari ortishi mumkin.

Chizmalar qog‘oz varag‘ida bajariladi. Buyumlar namunasi va o‘lchamlarini o‘rganishda buyum barcha ko‘rsatkichlarini hisobga olgan yozmalar, konspektlar olib borish kerak. Maolimot qancha ko‘p to‘plansa, rasmlar va sxemalar chizilsa, buyumni texnologik va mexanik xossalarini shuncha yaxshi tushunadi va shuncha o‘z variant ustida ishlash oson bo‘ladi va qo‘yilgan vazifaga javoblar to‘liq va buyum mukammal bo‘ladi.

Bunday tahlildan so‘ng, o‘z variantimizni ishlashga kirishishimizda tashqi ko‘rinish sifatini yaxshilash uchun qanday o‘zgartirishlar kiritish mumkinligi aniqlanadi. Bunday usul buyumlar modernizatsiya qilish, tashqi ko‘rinishini yaxshilash uchun tavsiya etiladi. Agarda yangi mahsulot uchun ishlayotgan bo‘lsa, yaoni konstruksiya sxemasi va vazifasi yangi bo‘lsa, unda aniq konstruktiv, texnik masalalar yechimlari, asosiy parametrlarini aniqlash lozim bo‘ladi. Ushbu masalalarni birinchi navbatda muhandislar hal qilishi so‘ng esa tasvirchi-konstruktorlar qo‘shiladi.

Foydalaniladigan buyumning go‘zalligi elementlar o‘lchamini bir-biriga mosligi, shakllari va xizmati orasidagi nisbati bilan aniqlanadi. Kiyim-kechak, poyabzal go‘zalligi haqidagi tushuncha doimiy emas. Yangi shakl paydo bo‘lishi bilan, eskisi o‘z qiymatini yo‘qotadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Doimo yangi shakllar ustida izlanish kiyim-kechak, poyabzal, aksesuarlar obrazli mohiyatini ochib, zamonaviy shakl berish yo‘li bilan plastik go‘zalligiga, fakturasiga, rang tonlarida yangi yechimlar aniqlanadi, bu musavvir konstruktorlar oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa.

Dizayner bir butun kompozisiya yaratishi uchun kospozisiya qonunlaridan foydalanishi, loyihalayotgan modelini shakl chiziqlari kiyim-kechak, poyabzal va boshqa detallarini yaratishda plastikaga e’tibor berib yaratishni hamda shu yaratayotgan modelni tabiat bilan uyg‘unlikda birga olib borishi, musavvir konstuktorni oldida turgan asosiy vazifasini ochib bergan.Фойдаланилган

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdusattorovna M. G. The Art of Model Crafting: Utilizing A Spectrum of Paint Mediums //American Journal of Technology and Applied Sciences. – 2023. – T. 19. – C. 48-54.

2.Mirboboeva G., Isroilova N., Rakhmonova M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 11-16.

3.Mirboboyeva G. A. QO ‘LDA BAJARILADIGAN KASHTA CHOKLARI TURLARINI O ‘RGANISH //YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 870-873.

4.Maxmudjon T., Gulxayo M. GAZLAMALARNI BO ‘YASHDA ISHLATILADIGAN BO ‘YOQLAR HAQIDA MA’LUMOTLARNI O‘RGANISH //IZLANUVCHI. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 304-307. 5.Mirboboyeva G. A. et al. ZIG ‘IR TOLASINI OLISH TEXNOLOGIYASINI QADIMGI USULLARI //YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 8. – C. 702-707.

6. MG Abdusattorovna, UN Qosimjonovna Retro style in modeling women's clothing Asian Journal of Multidimensional Research 10 (9), 372-376 7.Mirboboeva Gulhayo Abdusattorovna Tursunov Davron Shamsiddin ogli (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. academicia globe: inderscience research, 4(03), 246–251.

8. G.A. Mirboboyeva. (2025). "CHARM – MO'YNA KREATIV GRAFIKASI TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISHDA INNOVASION INTERFAOL METODLAR QO'LLASH. Multidisciplinary journal of science and technology, 5(10), 1103–1108.

9. Tursumatova S., Tursunov D., Isroilova N. Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 204-209.

10. Isroilova N. RESEARCH ON THE PRODUCTION OF MEDICAL SUITS BASED ON FLAX FIBER FABRICS //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 405-409.

11. Isroilova N. ANALYTICAL STUDY AND FORMATION OF THE ASSORTMENT OF WOMEN'S LIGHTWEIGHT CLOTHING //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 445-451.

12. Nozimjonovna, O. I. (2022). CONSTRUCTIVE ANALYSIS OF MODERN CIRCULAR NEEDLE KNITTING MACHINES. American Journal Of Applied Science And Technology, 2(06), 75-79.